

Abdulla Qodiriy

JINLAR BAZMI

Hikoyalar

Toshkent
«Cho'lpon» nashriyoti
2004

Nashrga tayyorlovchi: Xondamir Qodiriy

Aziz bolalar!

Qo'lingizdagi kitobga buyuk o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning yosh kitobxonlarga bag'ishlangan ikki hikoyasi kiritildi. Ularda xalqimizning milliy urf-odatlarini, ba'zi sirli hodisalar haqidagi tasavvurlari mahorat bilan tasvirlangan. Adibning serjilo ohanglarga boy tili, tiniq obrazlari, quvnoq kulgisi, yorqin tasviri o'quvchini maftun etadi.

Mazkur kitob adib tug'ilgan kunning 110 yilligiga bag'ishlab chop etilmoqda.

JINLAR BAZMI

(Mavhum hikoya)

Otam bu hikoyasini boshlagan vaqtda mening vujudimni qo'rquv o'rab olar edi-da, ichimdan: «Meni ham shunday jinlarga yo'liqtirma», deb tangriga yolborib qo'yar edim.

Kecha xolam bizning uyga mehmon bo'lib kelgan edi. Kechasi oshdan keyin otam, oyim, xolam uchovlari choy ichishib o'ltirar va o'tgan-ketgandan so'zlashar edilar. So'z aylanib kelib yana o'sha jinlar, parilar, devlar to'g'risida to'xtadi. Otam bo'lsa o'zi ko'rgan «jinlar bazimi»ni so'zlashdan yana tiyilolmadi. Otamning bu hikoyasi, yuqorida so'zlaganimcha, mening uchun ortiqcha vahimani bo'lganidan darrov o'rnimga kirib, ko'rpamga burkanib yotib oldim. Otam menga bir kulib qaradi-da, «jinlar bazimi»dan so'z ochdi:

— «Yangi uylangan vaqtlarim edi. Tiriklik bilan ovora bo'lib, bog'ning poyasiga o'z vaqtida qarolmadim. Bir kim payt topib boqqa bordim, tok juda ham o'sib ketgan, bardidan¹ hatto ikki qarichgacha o'sib chiqqan edi. Shuning uchun ishkamlarni shitobroq tikkaytirishga to'g'ri kelar edi. Boqqa bora boshlaganimning to'rtinchi kuni kechasi bir oz yomg'ir yog'ib chiqdi. Go'yo yomg'irni kutib turgan toklar yana ham o'sib ketdilar, sho'ralar bardi ustiga engashib, ishkom ustiga olmaganim uchun go'yo mendan arazlagandek ko'rinar edilar. Men nima bo'lsa ham poya ishini bugun bitirmoqchi bo'ldim. Ertaga tokni ochmasam, ham o'zim uchun, ham tok uchun jabr qilg'an bo'larman, deb o'yladim.

Istakni² ozroq olgan ekanman. Oxirpeshin³ vaqtiga istak tamom bo'lib qoldi. Istak uchun bozorga boray desam bir ishkomgina yamoq qoldi, undan keyin bozordan qaytib chiqquncha kech ham bo'ladi. Nima qilish kerak? Uzoq o'ylab turmay, tut, qayrag'och va tol kabi daraxtlardan istak chilpidim.

¹ *Bardi* — qamish o'zagining tagida yer bag'irlab o'sadigan barglari, uni o'rib kelib, tokni yotqizib qo'ndoqlagandan so'ng sovuq urmasin uchun ustiga yopiladi.

² *Istak* — tol, tut, qayrag'ochning burab yumshatilgan ingichka novdalari, uni tok bag'azlarini bog'lashda oson ishlatiladi.

³ *Oxirpeshin* — soat 4 lar atrofi, asr namozidan oldinroq payt.